



Ruziyeva Gavhar Abdumalik qizi,
*Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti doktoranti*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR AXLOQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIAGNOSTIKASI VA PEDAGOGIK VOSITALARI

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyalash diagnostikasi mazmuni, axloq rivojlanishining dastlabki bosqichlarining asosiy ko'nikmalarini aniqlash, ularni shakllantirishning ayrim usullari mazmunini tizimlashtirish, shuningdek axloqiy rivojlanishda madaniy amaliyotlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, ko'nikmalar, maktabgacha yoshdagi bolalar, asosiy mezonlar, darajalar, usullar, bolalikning madaniy amaliyoti.

Аннотация. В статье раскрывается содержание диагностики нравственного воспитания дошкольников, выявление основных навыков ранних этапов нравственного становления, систематизация содержания некоторых методов их формирования, а также значение культурных практик в нравственном становлении.

Ключевые слова: нравственное воспитание, умения, дошкольники, основные критерии, уровни, методы, культурная практика детства.

Annotation. The article reveals the content of diagnosing the moral education of preschoolers, identifying the basic skills of the early stages of moral development, systematizing the content of some methods of their formation, as well as the importance of cultural practices in moral development.

Keywords: moral education, skills, preschoolers, basic criteria, levels, methods, cultural practice of childhood.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari bilan maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishning barcha jihatlarini qamrab olingan [1, 2, 3]. Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk, intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun sharoit yaratish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Axloqiy tarbiya jarayoni – bu pedagogik faoliyatning samaradorligi va sifatiga, bola shaxsini

axloqiy tarbiyalashning yuqori darajasiga erishishga qaratilgan tarbiyachi va jamoa o'rtasidagi izchil o'zaro munosabatlar majmuidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab o'quv jarayonining muhim elementi va u bola o'sib borayotgan jamiyat hayotining bir qismiga aylanishi kerak [4, 69-bet].

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar – bog'chalar soni ko'payib, ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilanayotgani, mazkur muassasalar xodimlarini rag'batlantirish va faoliyati ustidan nazorat yo'lga qo'yilayotgani bilan bir qatorda kamchiliklar ham mavjud. Bugun mazkur tizimda malakali kadrlar yetishmasligi, AKTning jamiyat yoki oiladagi (noqulay) muhitga salbiy ta'siri, tajovuzkor,

g'ayriinsoniy va antiestetik xarakterdagi telefilmlar va ko'rsatuvlar bolalar axloqiy tarbiyasining risoladagiday kechmayotganiga salbiy ta'sir omillaridan sanaladi. Shu sababli, shaxsda juda erta yoshdanoq insonparvarlik, axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik xususiyatlarini shakllantirish eng muhim vazifadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalari – ularni axloqiy tuyg'ularni shakllantirish, ijobiy ko'nikmalar va xulq-atvor odatlari, axloqiy g'oyalar va xatti-harakatlar motivlarini o'z ichiga oladi.

D.B. Elkonin, I.P. Podlasiy, O.M. Potapovskaya, E.A. Maksimovalarning [5, 6, 7, 8] fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyalash diagnostikasi, birinchi navbatda, ta'lim-tarbiya amaliyotiga asoslanishi kerak.

O'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan yaratilgan sharoitlarda bolalarning faoliyatini kuzatish jarayonida ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi ma'lum bir me'yor va kutilgan natijalarga nisbatan tizimli va to'liqroq tasavvur olish imkonini beradi.

O.M.Potapovskaya, E.V.Mixayilova va I.Y.Bartenevalar [8,9,10] tomonidan taklif etilgan diagnostik usullarini tahlil qilish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasini diagnostika qilish tizimi ishlab chiqildi (1-jadval).

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, bunday diagnostika tizimi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning ommaviy amaliyotida, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim va maktabga tayyorlashning samarali tizimini

tashkil etishda ilmiy yondashuv qo'llanilmagan hamda yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Bu holatlar tajriba to'plash jarayonida axloqiy odatlarga aylanib ketadigan xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini birlamchi vazifa qilib qo'yadi.

Ko'nikma – bu avtomatizm darajasiga olib kelingan mahorat bo'lib, mashq qilish, muntazam takrorlash orqali hosil bo'ladi [11, 96-bet].

So'nggi paytlarda “bolalikning madaniy amaliyoti” deb ataladigan tushunchani qo'llash keng tarqalmoqda.

Axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash axloqiy xulq-atvorni shakllantirishning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bolada paydo bo'lgan axloqiy odatlar, birinchi navbatda, uning xulq-atvori, tashqi ko'rinishi, nutqi, narsalarga bo'lgan munosabati, atrofidagi odamlar bilan muloqot qilish tabiatida namoyon bo'ladi.

Ko'nikma – shaxsni axloqiy tarbiyalashning ibtidosi, poydevori.

Uning mexanizmi axloqiy tarbiyaning ketma-ketligiga ega: bilim va g'oyalar – motivlar – his-tuyg'ular va munosabatlar – ko'nikma va odatlar – amallar va xatti-harakatlar – axloqiy sifat. Ushbu mexanizm obyektiv xarakterga ega. U har doim shaxsning har qanday (axloqiy yoki axloqsiz) xususiyatini shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya mexanizmining asosiy xususiyati o'zaro almashuv prinsipining mavjud emasligidir. Bu shuni anglatadiki, mexanizmning har bir komponenti muhim va uni yo'q qilib yoki boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Bunday holda, mexanizmning harakati tabiatan moslashuvchan:

1-jadval

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning diagnostika tizimi

Mezonlar	Sifat ko'rsatkichlari	Darajalar	Diagnostika usullari
kognitiv	ijodkorlik, yaratuvchanlik	optimal	suhbatlar
emotsional	tashabbuskorlik	o'rta	kuzatuv
mazmundor	mustaqillik	past	pedagog va ota-onalarning o'zini o'zi baholashi
motivatsion	mas'uliyatlilik		maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodini tahlil qilish
kommunikativ	o'zini boshqara olish		uslubiy ishlanmalar tahlili
boshqaruvli	o'zini anglash		pedagoglarning ekspert xulosalari
ijtimoiy-madaniy xulq-atvor	o'zini baholash		maktabgacha ta'lim tashkilotining monitoringi

tarkibiy qismlarning ketma-ketligi sifat xususiyatlari (uning murakkabligi va boshqalarga) va ta'lim obyektining yoshiga qarab o'zgarishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq-atvor madaniyati haqida gapirganda, ular ko'nikma va qobiliyatlarning butun hajmini anglatadi. Ular bolaga kundalik tartibni, oilaning turmush tarzini, kattalar va tengdoshlar o'rtasida to'g'ri munosabatlarni o'rnatishda umumiy tartibni saqlashga imkon beradi. Bu:

- shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyim-kechak va poyabzal tozaligi, ovqatlanish madaniyati (stolda o'zini tutish, vilka va pichoqni ishlatish qobiliyati) bilan bog'liq ko'nikmalar;

- kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlar madaniyati (uyda, hovlida, ko'chada, jamoat joylarida, bolalar bog'chasida...);

- tartibli madaniyati (rejimga munosabat), o'yin madaniyati, o'quv mashg'ulotlari, mehnat vazifalarini bajarish bilan;

- nutq madaniyati (murojaat shakli, so'z boyligi madaniyati, ohang, nutq tezligi) bilan bog'liq.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar elementar kundalik madaniyatga, xushmuomalalikka, birgalikda o'ynashga, itoatkorlikka o'rgatiladi.

O'rta maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar va tengdoshlar bilan madaniy muloqot qilish odatlari, rostgo'ylik, tozalik, tartibni saqlash, foydali ishlarni bajarish, mehnat qilish odatlari shakllanishda davom etadi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda harakatlarning axloqiy mazmuniga ongli ravishdagi munosabat asosida shakllanadigan axloqiy ko'nikmalar va odatlar kuchayadi. Bu odatlar mustahkamlanib, murakkabroqlari shakllanadi: jamoaviy o'yinlar, mehnat va mashg'ulotlar, topshiriq va majburiyatlarni batartiblik bilan bajarish, o'zaro va kattalarga yordam berish va boshqa odatlar. O'qituvchi bolalarda ongli xulq-atvorni, jamiyat axloqiy me'yorlariga rioya qilishni tarbiyalaydi [7].

Shunday qilib, erta maktabgacha yoshda gigiyenik va xulq-atvor madaniyat ko'nikmalari bolalarning keyingi axloqiy tarbiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Gigiyenik tarbiya va ta'lim madaniy xulq-atvorni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir.

Ushbu ko'nikmalar pedagogik usullar tizimi tomonidan shakllantiriladi:

Shaxsiy namuna. Maktabgacha yoshdagi bolalarni samarali gigiyenik tarbiyalashda **atrofdagilar va kattalarning tashqi ko'rinishi ham** katta ahamiyatga ega. Bu yoshdagi bolalar juda kuzatuvchan va taqlid qilishga moyil ekanini doimo yodda tutishimiz lozim, shuning uchun ham o'qituvchi ular uchun namuna bo'lishi kerak. Bolalarda gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish, sog'lom turmush tarzi odatlarini tarbiyalashning zaruriy sharti maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining yuqori sanitariya madaniyati hisoblanadi.

Kattalar tomonidan belgilangan talablarning yaxlitligi muvaffaqiyatli gigiyenik ta'limning zaruriy shartidir. Bola tarbiyachi, tibbiyot xodimi, enaga va, albatta, oiladagi muloqoti davomida gigiyenik ko'nikmalarga ega bo'lib boradi. Bolalar bog'chasida tarbiya olayotgan bolaga o'rgatilgan gigiyena ko'nikmalarini doimiy ravishda mustahkamlab borish ota-onalarning mas'uliyatidir. Kattalar bolaga o'rnak bo'lishlari va o'zlari doimo ularga ergashishlari muhimdir.

Ong va hissiyotlarga ta'sir qilish. Madaniy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishda bolaning ongi va his-tuyg'ulariga ta'sir qilish va shu bilan birga u ushbu ko'nikmalarni mashq qilish imkoniyatiga ega ekaniga ishonch hosil qilish kerak.

Motivatsiya – kattalarning namunasi, ya'ni ota-onalar, oila a'zolari, qo'shnilar, tanishlar, o'qituvchilar tafakkur xarakteridan kelib chiqib emas, balki ular tegishli amallar va xatti-harakatlarni amalga oshirishda bolalar hayotini shunday tashkil etishlari **da'vat** etiladigan bo'lishi kerak. Farzandingizni do'stiga o'yinchoqlarni yig'ishtirishda ko'maklashish, kichiklarga g'amxo'rlik qilish va kattalarga yordam berishga chaqirib.

Ko'rsatish orqali tushuntirish – og'zaki va vizual usullarning kombinatsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalikning butun davrida gigiyena ko'nikmalari va xulq-atvor madaniyatini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Bolalarga "Kosa (o'yinchoq)ni ehtiyot qil", "Sarishta bo'l" deb aytishning o'zi yetarli emas, ularni avaylab ishlatish ko'nikmalarini ko'rsatish orqali o'rgatish kerak.

Tushuntirish, eslatish. Ko'nikmalar o'zlashtirilgani sari ko'rsatib tushuntirishdan eslatib borishga bosqichma-bosqich o'tish.

Ko'nikmani kichikroq amallarga bo'lish. Bolalar tomonidan ko'nikmalarning

o'zlashtirilishini osonlashtirish uchun uni kichikroq, aniq harakatlarga ajratish foyda beradi. Asta-sekin bolalarga o'yinchoqlar bilan ishlashda ushbu kichik o'ziga xos qoidalarga rioya qilishni o'rgatish umumiy qoida, ya'ni o'yinchoqlarni ehtiyot qilishni o'rganishga yordam beradi.

Axloqiy ko'nikmalar (odatlar) tajribasini to'plash. Faqat muntazam takrorlashlar tufayli odatlar mustahkamlanadi, ehtiyojga, xatti-harakatlarning eng muhim mexanizmiga aylanadi.

Mashq qilish. Tabiiy hayotiy vaziyatlardan foydalangan holda bunday harakatlarga undaydigan maxsus shart-sharoitlarni yaratish bolalarni axloqiy amallar va harakatlarga o'rgatishda juda muhimdir.

Mustahkamlash. Orttirilgan bilimlar va shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini mustahkamlash uchun bolalarga turli xil topshiriqlar berish tavsiya etiladi. Masalan, tirnoqlar, qo'llar, kiyim-kechaklar holati va shkaftagi shaxsiy buyumlarning tarkibini muntazam ravishda tekshirish uchun tengdoshlari orasidan sanitar tayinlash. Agar ko'nikmalar turli vaziyatlarda muntazam mashq qilinsa, tez mustahkamlanadi. Asosiysi, bu bolalarda qiziqish uyg'otadi va ular o'z harakatlarining natijalarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Rag'batlantirish, maqtash – bolalarning ijobiy harakatlariga e'tibor berish va maqtash kerak. Bu, ayniqsa, besh yoshgacha bo'lgan bolalar uchun juda muhim.

Badiiy so'z imkoniyatlaridan foydalanish – hikoyalar, ertaklar, she'rlar, axloqiy xatti-harakatlar qoidalari nuqtai nazaridan baholashni talab qiladigan ko'plab vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, to'g'ri axloqiy ishni baholash bolaga yuklanmaydi, bunda u o'z "qahramonona ishi"ni tushunib yetishi kerak.

Shuni yodda tutish kerakki, bolalarning badiiy asar qahramoni yoki tengdoshining "xatti-harakatlari"ga nisbatan bo'lgan his-tuyg'ulari, mulohazalari, munosabati o'z-o'zidan barqaror shaxsiy fazilatlariga aylanmaydi.

Axloqiy suhbatlar. Odatda, katta maktab yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladi. Axloqiy mavzulardagi suhbatlarda axloqiy yoki mavhum toifalardan iborat bo'lmasligi kerak. Ular bolalarga adolat, kamtarlik, mehribonlik kabi axloqiy tushunchalarni o'rganishga yordam beradi. Rostgo'ylikka o'rgatishda bolalarning o'z halol va ijobiy axloqiy xatti-harakatlarining aniq misollaridan foydalanish juda muhim.

O'yin faoliyati. Kichik yoshdagi davrda zarur ko'nikmalar bolalarning madaniy va axloqiy o'yinlari orqali yaxshiroq o'zlashtiriladi. Bu o'yinlar qiziqarli, hayajonli bo'lishi, bolalarning tashabbuskorligi va ijodkorligini rag'batlantirishi bilan muhim. Bolalar tomonidan madaniy xulq-atvorning yanada murakkab qoidalar tizimida o'zlashtirilishi uchun jamoaviy o'yin-faoliyatlar, o'yin-mashqlar, o'yin-dramatizatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ular o'qituvchiga guruhdagi har bir bola tomonidan ko'nikmalar egallanish darajasini tenglashtirishda yordam beradi.

Talablar. Xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya qilishni talab qilish kerak. Agar bu o'z vaqtida va izchil talab qilinsa, bolalar ularni osongina yengishi mumkin. Bunda, albatta, bolaning allaqachon erishgan darajasidan kelib chiqish kerak, aks holda, talab haddan tashqari ortiqcha bo'lib ko'rinishi mumkin yoki aksincha, bolani jiddiy harakat qilishga undamaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalardan harakatlarni to'g'ri va aniq amalga oshirishga, ularning to'g'ri ketma-ketligiga erishish kerak. O'yin faoliyati orqali o'qituvchi talablarning mazmunini kerakli ketma-ketlikda ochibgina qolmay, balki ushbu talablarni tarbiyalanuvchining o'ziga xos harakatlari bilan bog'lashi mumkin, bu esa unga nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamlash va kundalik hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Madaniy amaliyotlar vaziyatli, avtonom, mustaqil, kattalar yoki bolaning o'zi tomonidan boshlangan, turli guruhlar, jamoalar, ijtimoiy tuzilmalardagi yoshi kattalar, tengdoshlar va kichiklar bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatlarning turli tajribalarini egallash va takrorlashdir [4,8].

Madaniy amaliyotlar bolaning kattalar bilan o'zaro munosabatida va doimiy ravishda kengayib borayotgan mustaqil harakatlarida shakllanishi mumkin.

Madaniy amaliyotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiyatining umumiy madaniyatini shakllantirish, ularning ijtimoiy, axloqiy, estetik, intellektual, jismoniy fazilatlarini rivojlantirishdir.

Shuningdek, bolalik davridagi madaniy amaliyotlar bolaning tashabbuskorligi, mustaqilligi va mas'uliyatini rivojlantirish, shuningdek, o'quv faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish uchun kuchli vositadir.

Yetakchi madaniy amaliyot – bu o‘yin amaliyoti bo‘lib, u bolalar va kattalarning ta‘lim faoliyati uchun tadbir tashkil etilgan makonni yaratishga imkon beradi.

Madaniy amaliyotlarga quyidagilar kiradi:

O‘qituvchi va bolalarning **qo‘shma o‘yini** (sujetli o‘yin, rejissorlik, dramatisatsiya o‘yini, qurilish-konstruktiv o‘yinlar).

Muloqot vaziyatlari, ijobiy ijtimoiy va hissiy tajribani to‘plash tabiatan muammoli bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarga yaqin bo‘lgan hayot muammosini o‘z ichiga oladi, ularni hal qilishda bevosita ishtirok etadi).

Bolalarga nisbatan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash hamda buning uchun sharoitlar yaratadigan ijodiy ustaxona (masalan, hunarmandchilik, xalq hunarmandchiligi bilan tanishish, o‘quv taqdimotlarini tomosha qilish, badiiy galereya, kitob burchagi yoki kutubxonani bezash, o‘yinlar va kolleksiyalash).

Musiqiy-teatr va adabiyot xonasi (bolalar studiyasi) – musiqa va adabiy asarlarni idrok etishni,

bolalarning ijodiy faolligini, tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi erkin muloqotni tashkil etishni o‘z ichiga olgan adabiy yoki musiqiy material asosida bolalarning badiiy va ijodiy faoliyatini tashkil etish shakli.

Sensor-intellektual tayyorgarlik – bu, asosan, o‘yin xarakteriga ega bo‘lgan, hissiy me‘yorlar tizimi (ranglar, shakllar, fazoviy munosabatlar va boshqalar) shakllanishini ta‘minlaydigan vazifalar tizimi bo‘lib, bu o‘yinlar, mantiqiy mashqlar va qiziqarli vazifalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Kunning ikkinchi yarmida turli tadbirlarda bolalarning mustaqilligi va ijodkorligi namoyon bo‘lishiga qaratilgan turli xil madaniy mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Madaniy amaliyotlar bolalarning o‘z-o‘zini o‘rgatishga, rivojlanishi va yuzaga keladigan barcha savollarga javob topishiga yordam beradi va shu bilan ularni balog‘at yoshiga tayyorlanishiga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию системы дошкольного образования» от 9 сентября 2017 года 9 сентября 2017 г., № ПП-326.
2. Указ Президента Республики Узбекистан “О мерах по коренному совершенствованию управления системой дошкольного образования” 30 сентября 2017 г., № УП-5198.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об организации деятельности Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан. 30 сентября 2017 г., № ПП-3305.
4. Потаповская О.М. Особенности реализации духовно-нравственного воспитания детей в современной практике дошкольных образовательных учреждений// Педагогика. Психология. 2012. Вып. 4 (27). – С. 64-83.
5. Эльконин Д.Б. Детская психология. – Москва: Изд. центр «Академия», 2011. – С. 299.
6. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: ВЛАДОС, 2004. Кн.2. – С. 256.
7. Максимова Е.А. Преемственность воспитания нравственных качеств личности в дошкольном и общеобразовательном учреждении. Дис. ...канд. пед. наук. – Бийск, 2007. – 198 с.
8. Потаповская О.М. Моделирование духовно-нравственного воспитания детей в дошкольном образовательном учреждении на основе ценностных доминант отечественной социокультурной традиции //Педагогика. Психология. 2013. – Вып. 1 (28). – С. 27-50.
9. Михайлова Е.В. Педагогические условия формирования нравственных ценностей у младших школьников во внеурочной деятельности: Автореф. ...кан.пед.наук. – Москва, 2007. – С. 20.
10. Бартенева И.Ю. Образовательный модуль к дистанционному (заочному) этапу курсов по теме «Современные подходы к организации воспитательной деятельности в учреждении дошкольного образования». www.eduportal44.ru/koiro
11. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: ВЛАДОС, 2004. Кн.2. – С. 256.